



XIX- ASR OXIRI VA XX- ASR BOSHIDA XIVA XONLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

Musayev Diyorjon
SamDu, 4-kurs talabasi

Anottatsiya:

Ushbu maqolada Xiva xonligining XIX-asr oxiri va XX-asr boshida ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, xonlikning ushbu davrdagi so'nggi hukmdorlari va ularning islohotlari, xonlikda qishloq xo'jaligi, yer egaligi, hunarmandchilik va Rossiya imperiyasi sanoatining ta'siri natijasida Xivada sanoat zavodlarini tashkil etilishi kabi masalalar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: 1873-yilgi shartnoma ", Muhammad Rahimxon II, Asfandiyorxon, Islomxo'ja, qishloq xo'jaligi, soliq va majburiyatlar hunarmandchilik, sanoatning kirib kelishi.

Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga yurishi 1873-yilgi „Gandimiyon shartnomasi " bilan yakun topdi va Rossiya imperiyasi Xiva xonligining ustidan o'z protektoratini o'rnatdi. Xiva xonligi ichki va tashqi siyosatidagi arziyas o'zgarishlarni ham Turkiston general -gubernatori bilan kelishishi lozim edi. Xiva xonligining ustidan nazoratni o'rnatish maqsadida 7 kishidan iborat Kengash tuzadi. Uning 4 tasi rus hukumati vakillari Turkiston general -gubernatori Amudaryo bo'limi boshlig'i ayni paytda Xiva xonligida Rossiyaning vakili sifatida Xon ustidan nazorat olib borar edi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Rossiya imperiyasi 1873 yilgi shartnomadan so'ng Xiva xoni tashqi masalalarda Rossiya imperiyasi roziligi bilangina ish olib borgan. Ichki siyosatda ma'lum bir mustaqillik saqlanib qolgan bo'lsa -da, biroq amalda unga ham Rossiya imperiyasi aralashuvi bo'lib turgan. Shu boisdan ham Xiva xonligi amalda Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib qoladi.

Bu davrda xonlikda qo'ng'iroqlar sulolasiga mansub bo'lgan Muhammad Rahimxon II (Feruz taxallusi) (1864 -1910)ning hukmronligi ketayotgan edi. Xiva xonligini boshqargan Sayyid Muhammadxon Rahimxon II (Feruz)ning faoliyatida adolatparvarlik va haqgo'ylik, qattiqqo'llik va talabchanlik bilan, ma'rifatparvarlik



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

va tashabbuskorliklaruyg'unlashib ketganligi haqida Ogahiy va Bayoniylar asarlarida ma'lum qilingan. Zamonaviy tarixchilar Muhammadxon Rahimxon II hukmronligini ikki bosqichga ajratadilar. Birinchi bosqich – 1864 – 1873 yillar, xon hukmronligining dastlabki o'n yilligibo'lib, bu davrda Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni qaratib toptirish, qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik, fan va madaniyatni yuksaltirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ikkinchi bosqich – 1873 yil avgustdan 1910 -yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1873 yilda general Kaufman bilan sulhga binoan, xonlik Rossiya qaram davlatga aylandi. Bu davrda Muhammadxon Rahimxon II ning faoliyati Rossiya hukumati tomonidan qat'iy cheklandi va nazorat ostiga olindi. Shunga qaramasdan xono'zining adolatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini davom ettirdi.

Undan so'ng taxtga o'tirgan og'li Asfandiyorxon (1910-1920) ham o'z hukmronligining dastlabki yillarida islohotlar o'tkazish tarafdor bo'ldi. Bu esa bosh vazir Islomxo'janing qo'llashiga olib keldi. Islomxo'ja o'z davrining yetuk, ilmiy va ma'rifatli kishisi edi. U o'z yurtini dunyoning eng ilg'or mamlakatlari qatorida ko'rishni orzu qilgan shaxs edi. Biroq saroy fitnasi tufayli Islomxo'ja o'ldiriladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Asfandiyorxon hukmronlik yillari mamlakatda hokimiyat uchun kurashlar, qozg'olonlar avj oldi. U ham qozg'olonlarni rus hukumatining ko'magida bostirardi. Biroq turkmanlarning yetakchisi Junaidxonning qozg'olonchilarga yordam berishi, 1917-yilda Rossiya imperiyasidagi „ Fevral inqilobi " Asfandiyorxonni tashvishga solmasdan qo'ymaydi. U rus ma'muriyati yordamidan ayrilgach, turkmanlar yetakchisi Junaidxon bilan kelishib mamlakatni boshqarishni taklif etadi, Junaidxonni qo'shin qo'mondoni etib tayinlaydi. Biroq Junaidxon bundan foydalanib Asfandiyorxonni o'ldirtiradi. Taxtga esa yana bir qozg'olonlardan bo'lgan Said Abdulla (1918-1920) o'tqazadi, lekin u nomigagina qozg'olon hukmdor bo'lib amalda Junaidxonni o'zi boshqarardi. Shunday qilib XX asrning boshlarida Xiva xonligida jiddiy o'zgarishlar kechdi, ayniqsa ocharchilik tufayli xalq g'alayonlari keng tus oldi. Xiva xonligi bunday o'zgarishlarni rus ma'muriyati yordami bilan bostirar edi. Ammo Rossiyaning o'zida ham hokimiyat almashgach, vaziyat o'zgardi, Xiva Xoni rus hukumati yordamidan mahrum bo'ldi. Natijada xalq g'alayonlari keskin tus



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

olib,amalda hokimiyatni turkmanlar yetakchisi Junaidxon o'z qo'liga oldi.(Keyinchalik Sovet hukumati tomonidan 1920-yil Xiva xonligi tugatilishi bizga ma'lum)

XIX-asr oxiri va XX-asr boshida ham Xiva xonligida qishloq xo'jaligi asosiy o'rin tutgan.Shunday bo'lsa -da,XIX-asrning 90-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi bilan savdo-sotiq rivojlangach,xonlikda paxta sanoatiga ixtisoslashuv ham kuzatildi.Aholining 90% tashkil etgan dehqonlar sug'oriladigan yerlarning 5% ga egalik qilar edi.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 130,590 kv.chaqirimni tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo bo'limi tashkil topgach uning hududi 54,698 kv .chaqirimni tashkil etadi.1910- yilgi F.Pavlenkovning „ Ensiklopediya"sida shunday deyilgan edi: Xiva Rossiyaga qaram hisoblanadi,- deyiladi unda .-U shimolda Orol dengizi sharqda Amudaryo bilan chegaradosh.Maydoni 54,698 kv.km bo'lib,uning 3/4 qismi ekin unmaydigan qum barxanlardan, Amudaryoning so'l qirg'og'idagi qolgan qismi esa hosildor va gullab turgan vohadan iborat ".Demak bundan ko'rinib turibdiki,Xiva xonligi hududlarida Amudaryo bo'limi tashkil topgach,hududi ancha qisqarib ketgan edi.Buning ustiga Xiva xonligi 1873-yilgi shartnoma bo'yicha Rossiya imperiyasiga 2mln.200 000 rub to'lash kerak edi.Bu mablag' ham xalqdan undirib olinadigan bo'ldi.Shu bois ham soliqlar ko'pligi tufayli mamlakatda xalq qo'zg'alonlari bo'lib turgan.

Bu davrda xonlikda soliqning 25 turi mavjudligi qayd etilgan.Masalan, salg'ut - yer solig'i,begor -majburiy mehnat, qazuv- 6 kunlik mehnat majburiyati va suv taqsimlovchi tarmoqlarni tozalash,mirobona -Mirob foydasiga to'lanadigan soliq,Ipak moli -aholining ipak moli- daromadidan 1/40 qismida olinadigan soliq va boshqa turli-tuman soliqlar mavjud bo'lgan.Shuning o'zi ham aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushgan va hech qaysi boshqa xonliklarda bundayin ko'p soliq bo'lmagan.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshida uy hunarmandchiligi saqlanib qolgan edi.Unda hunarmandlar ip yigirish, to'quvchilik,gilam va kigizlar tikish kabi ishlar bilan shug'ullanar edi.Rossiyadan tayyor mahsulotlar kirib kelishi hunarmandchilikda raqobatni vujudga keltirdi.Ba'zi hunarmandchilik ustaxonalari og'ir soliqlar, ularning ko'pligidan aziyat chekardi.Shu boisdan ham ba'zi hunarmandlar o'z ishini



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

tashlab Rossiya imperiyasi zavod-fabrikalariga ishga o'tib ketishga majbur bo'ldi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, xonlikda ko'tarilgan qo'zg'olonlarning asosini ham dehqonlar va kasodga uchragan hunarmandlar tashkil etgan.

Bu davrda Xiva iqtisodiy hayotida shaharlarning roli orta boshladi. XX asr boshlarida Xiva, Yangi Urganch, Qo'ng'iroq, Toshhovuz, Gurlan shaharlari iqtisodiy, madaniy va siyosiy markazga aylandi. Bo'g'ot, Mo'ynoq, Taxta kabi yangi shaharlar vujudga keldi. Bu kabi shaharlarda mahalliy va rus hukumatiga qarashli paxta tozalash, yog', ko'n, sovun va boshqa zavodlar faoliyat yuritgan.

Qolaversa, Rossiya bilan aloqalar tufayli rus kapitali kirib kela boshladi. Xususan, 1909-yil Rus-osiyo banki va Madiyoriv-Baqqolov kapitalini birlashtirgan „A- Meta sindikati“ tuzildi. 1903-yil aka -uka Kraftlar Yangi Urganchda bank idorasini ochdi. Keyinchalik ushbu bankning filiallari Xonqa Mang'it va Gurlanda tashkil etildi. 1910-yil Kraftlar oilasi Turkmanlar yog' zavodini sotib oldilar. Shunday qilib XX asr boshlarida Rossiya bilan aloqalar tufayli xonlikda rus kapitalini kirib kelishi kuzatildi, yangi shaharlar vujudga keldi, yangi zavod va fabrikalar tashkil etildi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XIX-asr oxiri va XX-asr boshida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Xiva xonligi hukmdorlari o'rni ham bor. Xususan, Muhammad Rahimxon II o'z davrining eng adolatparvar, ilmiy, haqqo'y hukmdorlaridan edi. Uning say harakati va islohotlari o'tkazishiga qaramay, Xonlik Rossiya imperiyasi protektorati edi. Uning og'li Asfandiyorxon davrida ham shunday bo'lib qoldi. XIX -asr oxirida xonlikning o'zida juda ko'p soliqlar, majburiyatlar bo'lishi aholining noroziligiga sababchi bo'lar, mamlakatda xalq g'alayonlari bo'lib turardi, Xiva xonligi bu qo'zg'olonlarni rus hukumati yordami bilan bostirar edi. Qolaversa, qishloq xo'jaligi ahvol, yer egaligi ham, hunarmandchilik sohalarida ham ahvol og'ir edi. Xalq og'ir soliqlar, ularning ko'pligidan norozi bo'lishar edi. Oxir oqibat Rossiya o'zida ham hokimiyat almashinuvi, mamlakatdagi hokimiyat uchun kurashlar yangi Sovet hukumatiga qo'l kelib, xonlikni tugatilishiga olib keldi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.H.H. Hamidov, Sh.E. Ernazarov, B.M. Raxmonov, R.I. Hasanov, N.S.Yunusovao`zbekiston tarixi/ o`quv-uslubiy qo`llanma /Toshkent -2021.B:187-190.

2.M.Mahmudov,U.Sheripov ,Xiva xonligini tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari)Urganch -2013.B:92-95.

3.Y.G`ulomov.Xorazmning sug`orilish tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgacha) Toshkent -1959.B:246-247.

Ishtirokchi

Familiya,ismi, sharifi,	Musayev Diyorjon Sodiq o`g`li
Telefon raqami	+998 50 501 32 17
Elektron pochta	diyormusayev13@gmail.com